

O'ZBEK TILIDA FE'LLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Suyunov Bahodir Turdiyevich

DTPI O'zbek tili va adabiyoti kafedrası

dotsenti, filologiya fanlari doktori

Boymirzayev Muhammad Mustafaqul o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

4-bosqich 403-guruh talabasi

Bozorova Zuhra Turg'unali qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

4-bosqich 403-guruh talabasi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilidagi fe'llarning uslubiy xususiyatlari, ularning badiiy, ilmiy, publitsistik va so'zlashuv uslublarida qo'llanishi tahlil qilinadi. Fe'llarning nutq ta'sirchanligini oshirishdagi o'rni, ma'no nozikliklarini ifodalash imkoniyatlari hamda uslub hosil qiluvchi vosita sifatidagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, fe'llarning semantik va grammatik xususiyatlari misollar asosida tahlil etilib, ularning nutq madaniyatidagi o'rni ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Fe'l, uslubiyat, uslubiy xususiyat, nutq, badiiy uslub, ilmiy uslub, publitsistik uslub, so'zlashuv uslubi, semantika, grammatik kategoriya, til birliklari, ekspressivlik.

Kirish

Fe'l tilning eng faol va ta'sirchan so'z turkumlaridan biri bo'lib, nutqda harakat, holat, jarayon va voqealarni ifodalaydi. Fe'llarning uslubiy xususiyatlari deganda ularning turli nutq uslublarida qo'llanishi, ma'no va emotsional-ekspressiv imkoniyatlari tushuniladi. Fe'llar matnning ta'sirchanligi, obrazlilik va ifodaliligini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Kontekstda ko'pgina fe'llar turli xil ma'nolarni aks ettiradi va bu ma'nolar, albatta, qaysidir nutq uslublari orqali ifodalanadi. Shunga ko'ra, barcha fe'llar qaysidir uslubga xoslangan bo'ladi.

Fe'llarning uslubiy xususiyatlari deganda ularning turli nutq uslublarida qo'llanishi, emotsional-ekspressiv ma'no ifodalashi hamda matnning ta'sirchanligini oshirishdagi vazifasi tushuniladi. O'zbek tilshunosi Abdug'ani G'ulomov fe'lni gapning mazmuniy markazi deb baholab, uning nutqdagi harakat va jarayonlarni ifodalashdagi beqiyos o'rnini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, fe'l gapning boshqa bo'laklarini o'z atrofida birlashtirib, fikrning shakllanishiga xizmat qiladi. Shu sababli fe'lning uslubiy imkoniyatlari boshqa so'z turkumlariga nisbatan kengroq hisoblanadi. Fe'llarning uslubiy xususiyatlari, avvalo, ularning funksional uslublardagi qo'llanishida namoyon bo'ladi. Badiiy uslubda fe'llar tasviriylik va obrazlilikni

kuchaytirishga xizmat qiladi. Adiblar voqea-hodisalarni jonli ifodalash uchun ma'nodosh fe'llardan, ko'chma ma'nodagi fe'llardan va emotsional bo'yoqdorlikka ega birliklardan keng foydalanadilar. Masalan, "yurdi" fe'li o'rnida "kezdi", "tentiradi", "sargardon bo'ldi", "izg'idi" kabi fe'llarning qo'llanishi tasvirning ta'sirchanligini oshiradi. Bunday holat badiiy matnning estetik qimmatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.¹

Erkin Begmatov fe'llarning uslubiy imkoniyatlarini ularning sinonimik qatorlari bilan bog'laydi. Olimning ta'kidlashicha, har bir sinonim fe'l o'ziga xos uslubiy bo'yoqqa ega bo'lib, muallif nutqning maqsadiga qarab ulardan foydalanadi. Ayniqsa, badiiy adabiyotda fe'l sinonimlari qahramon ruhiyati, muallif munosabati va voqealarning hissiy ta'sirini ifodalashda muhim vosita hisoblanadi.

Ilmiy uslubda esa fe'llarning qo'llanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu uslubda emotsionallikdan ko'ra aniqlik, mantiqiylik va xolislik ustun turadi. Shuning uchun "o'rganiladi", "aniqlanadi", "tahlil qilinadi", "isbotlanadi", "tasniflanadi" kabi fe'llar faol qo'llanadi. Mazkur fe'llar ilmiy bayonning obyektivligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ilmiy matnlarda ko'pincha majhul nisbatdagi fe'llarning qo'llanishi kuzatiladi. Bu esa tadqiqotchining shaxsini emas, ilmiy natijani oldingi o'ringa chiqaradi.

Publitsistik uslubda fe'llar ta'sirchanlik va da'vatkorlik vazifasini bajaradi. Gazeta va jurnal maqolalarida, siyosiy chiqishlarda hamda ommaviy axborot vositalarida "kurashmoqda", "intilmoqda", "barpo etmoqda", "erishmoqda" kabi fe'llar keng qo'llanadi. Bunday fe'llar o'quvchi yoki tinglovchiga ruhiy ta'sir ko'rsatib, uni muayyan fikr yoki harakatga undashga xizmat qiladi. Bahriddin O'rinboyev o'z tadqiqotlarida fe'llarning uslubiy vazifasi nutqning kommunikativ maqsadi bilan bog'liqligini qayd etadi. Olimning fikricha, har bir uslubda muayyan fe'l shakllarining ustunligi kuzatiladi va bu holat uslubiy me'yorlarning shakllanishiga sabab bo'ladi. Jumladan, rasmiy uslubda buyruq va farmoyish mazmunidagi "tasdiqlansin", "amalga oshirilsin", "ta'minlansin" kabi fe'llar faol ishlatiladi.²

Fe'llarning uslubiy imkoniyatlari ularning grammatik kategoriyalarida ham namoyon bo'ladi. Zamon, mayl va nisbat shakllari nutqda turli uslubiy ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, buyruq-istak mayli publitsistik va rasmiy uslubda faol qo'llansa, aniqlik mayli ilmiy uslub uchun xarakterlidir. O'tgan zamon shakllari badiiy asarlarda voqealar ketma-ketligini ifodalashda muhim rol o'ynaydi.

Ayyub G'ulomov fe'l kategoriyalarining uslubiy imkoniyatlarini tahlil qilib, grammatik shakllarning nutq ta'sirchanligini oshirishdagi ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, fe'l shakllari nafaqat grammatik ma'no, balki uslubiy

¹ Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Toshkent, 2008. 180b

² Mahmudov N. Til va nutq. Toshkent, 2012

ma'no ham ifodalaydi. Shu jihatdan fe'llar nutqning mazmuniy va estetik qimmatini oshiruvchi muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Fe'llarning badiiy uslubdagi xususiyatlari. Badiiy asarlarda fe'llar voqea-hodisalarni jonli tasvirlash, qahramonlarning ruhiy holatini ochib berish va obraz yaratish uchun xizmat qiladi. Yozuvchi fe'llarning ma'no nozikliklaridan foydalanib, matnga obrazlilik va ta'sirchanlik bag'ishlaydi.

Masalan: Shamol daraxtlarni silkitdi.

Qahramon sevinchdan parvoz qilgandek bo'ldi.

Daryo shovullab oqardi.

Bu misollarda fe'llar tasvirning jonli va obrazli chiqishiga xizmat qilgan.

Ilmiy uslubdagi xususiyatlari: Ilmiy uslubda fe'llar aniq, mantiqiy va xolis ma'no ifodalash uchun qo'llanadi. Bunda emotsional bo'yoqdorlik deyarli kuzatilmaydi.

Ko'p ishlatiladigan fe'llar:

aniqlanadi; o'rganiladi; tahlil qilinadi;

isbotlanadi; tasniflanadi.

Masalan:

"Fe'lning grammatik xususiyatlari lingvistik jihatdan tahlil qilinadi."

Bu yerda fe'l ilmiy bayonning aniqligini ta'minlagan.

Publitsistik uslubdagi xususiyatlari: Publitsistik uslubda fe'llar o'quvchi yoki tinglovchiga ta'sir ko'rsatish, uni muayyan fikrga undash vazifasini bajaradi.

Masalan: Yurtimiz taraqqiyot sari intilmoqda.

Yoshlar kelajakni o'z qo'llari bilan yaratmoqda.

Har bir fuqaro Vatan ravnaqi uchun harakat qilishi kerak.

Bu kabi fe'llar nutqning da'vatkorlik va ta'sirchanlik xususiyatini kuchaytiradi.

So'zlashuv uslubidagi xususiyatlari: So'zlashuv nutqida fe'llar erkin, sodda va ba'zan shevaga xos shakllarda qo'llanadi.

Masalan: Kelyapman. Borvordim. O'tiribman. Ketdim-da.

Bunday fe'llar nutqning tabiiyligi va samimiyligini ta'minlaydi. Bundan tashqari, so'zlashuv uslubidagi fe'llar uchun aynan belgilangan qolip mavud emas. U shunchaki, so'zlovchining asliyi bilan bog'liq hisoblanadi.

Rasmiy-idoraviy uslubdagi xususiyatlari: Rasmiy hujjatlarda fe'llar buyruq, ko'rsatma va farmoyish mazmunini ifodalaydi.

Masalan: Tasdiqlansin.

Amalga oshirilsin.

Nazorat qilinsin.

Belgilansin.

Bu uslubda fe'llar qisqa, aniq va standart shakllarda qo'llanadi. Har doim yuqoridagi qolip va mazmunda yuzaga keladi.

Fe'llar nutqqa turli hissiy bo'yoqlar beradi: yugurdi – oddiy harakat;
 yelib-yugurdi – kuchli harakat;
 sudraldi – salbiy munosabat;
 shiddat bilan otildi – kuchli hissiy ta'sir.
 Shuning uchun fe'l tanlovi muallifning voqelikka munosabatini ham ifodalaydi

Fe'llarning uslubiy xususiyatlari haqida o'zbek tilshunosligida quyidagi olimlar muhim fikrlar bildirgan:

Abdug'ani G'ulomov fe'lni nutqning harakat va jarayonni ifodalovchi eng faol vositasi deb baholaydi. Uning fikricha, fe'llar gapning markazi hisoblanib, matnga harakat va dinamika bag'ishlaydi. Olim badiiy asarlarda fe'llarning o'rinli tanlanishi tasvirning jonliligi va ta'sirchanligini oshirishini ta'kidlaydi.

Fe'l matnning harakatlantiruvchi markazi bo'lib, uslubiy ta'sir kuchini belgilaydi.

Ayyub G'ulomov fe'llarning uslubiy imkoniyatlari ularning grammatik shakllari bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. U zamon, mayl va nisbat kategoriyalarining nutq uslublarida turlicha vazifa bajarishini qayd etadi. Masalan, buyruq-istak mayli publitsistik va rasmiy uslubda faol qo'llansa, aniqlik mayli ilmiy uslub uchun xosdir. **Fe'lning grammatik shakllari uslubiy ma'no hosil qilishda muhim vosita hisoblanadi.**

Erkin Begmatov nutq madaniyati va uslubiyatga oid tadqiqotlarida fe'llarning ekspressiv-emotsional imkoniyatlarini tahlil qiladi. Uning fikricha, sinonim fe'llarning to'g'ri tanlanishi nutqning ta'sirchanligini oshiradi.

Masalan: yurmoq, kezmoq, tentiramoq, izg'imoq

Bu fe'llar bir harakatni bildirsa-da, uslubiy bo'yoqdorligi jihatidan farqlanadi.

Fe'l sinonimlari nutqda emotsional-ekspressiv rang-baranglik yaratadi.

B. O'rinboyev fe'llarning funksional uslublardagi o'rnini o'rganib, har bir uslubda ma'lum fe'l shakllari ustun bo'lishini ta'kidlaydi.

Ilmiy uslubda: aniqlanadi, isbotlanadi, o'rganiladi.

Rasmiy uslubda: tasdiqlansin, amalga oshirilsin.

Badiiy uslubda: shovulladi, shitirladi, yalt etdi kabi.

Fe'llarning tanlanishi matnning uslubiy mansubligini belgilovchi muhim ko'rsatkichdir.

Ibrohim Qo'chqortoyev fe'lning semantik va uslubiy xususiyatlarini o'rganib, harakatning turli darajalari va holatlarini ifodalovchi fe'llar badiiy matnda obraz yaratishning asosiy vositalaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Fe'l ma'nosidagi nozik farqlar badiiy tasvirning aniqligi va ta'sirchanligini kuchaytiradi.

Olim fe'llarning uslubiy vazifasini nutq jarayonidagi kommunikativ maqsad

bilan bog'laydi. Uning fikricha, muallifning maqsadi va munosabati ko'pincha fe'l shakllari orqali ifodalanadi. **Fe'l nafaqat harakatni, balki so'zlovchining voqelikka munosabatini ham ifodalaydi.**

Alisher Navoiy o'zining "Muokamat ul-lug'atayn asarida turkey va forsiy tilni bir biridan farqlar ekan quyidagi fe'llarning ham uslubiy qo'llanishiga oid qarashlarni aytib o'tadi.

Tomshimoq so'zi cheksiz zavqlanishdan birdaniga ichmay, **lazzat topa-topa** oz-oz ichishni

bildiradi. Bu ajoyib ma'no talqinida turkiyda ushbu matla' bordir.

Bayt:

Soqiy chu ichib, manga tutar qo 'sh,

Tomshiy-tomshiy ani qilay no 'sh.

Bo'xsamoq (ezilmoq, qiynalmoq) so'zi ifodasida bu matla'ni deganlar.

Hajri anduhida bo'xsabmen, bila olmon netay,

May ilojimdur, turib dayri fanog'a azm etay.

Ingramak va **singramakki**, dard bilan yashirin ohista yig'lamoqdir va bu ikki so'z oralarida ma'no tafovuti ozroqdir, turkiyda bu matla' borki:

Bayt:

Istasam davr ahlidin ishqingni pinhon aylamak,

Kechalar guh ingrutnakdur odatim, gah singramak.

Siqtamoq so'zi yig'lamoqda mubolag'adir (kuchli yig'lamoq, qaqshab-qaqshab yig'lamoq), turk (o'zbek) shoiri buni mana bunday talqin qilgandir:

Bayt:

Ul oyki, kula-kula qirog'latti meni,

Yig'latti meni demayki, **siqtatti** meni.

Yana baland tovush bilan haddan tashqari dod- faryod qilib yig'lamoqni o'kurmak deytilar. Turkiyda u ma'noda ushbu matla' bor:

Bayt:

Is him tog' uzra har yon ko 'zyoshi selini surmakdur,

Firoqning zo 'ridin har dam bulut yanglig' o'kurmakdur.

Forsiy tilda **o'kurmak** tushunchasi muqobili - ifodalovchi so'zi yo'qdir. Forsiygo'y shoir bunday ajoyib ma'noni ifodalash imkonidan mahrumdir. Yig'lamoqning **o'kurmak** silsilasida **inchkirmak** tarzidagi ma'nosi ham bor: Inchkirmak - ingichka, nozik ovoz bilan yig'lamoqdir va u turkiy so'z quyidagidek tarkibda talqin topgandir:

Bayt:

Charx zulmida bo 'g 'zummi qirib yig 'larmen,

Yigirur charx (kibi) inchkirib yig 'larmen.

Turkiy tilda **qimsanmoq** (ortiq darajada istamoq) va qizg'anmoq - ikki ajib so'zdirki, ular quyidagi baytda o'z ifodalarini topishgan:

Bayt:

Yuzingizni ocharga qimsanurmen,
Biroq el ko'rmagiga qizg'anurmen.

Turkiy tildagi mahbub tomonidan **yasanmog'ini** ifodalovchi so'z muqobili fors tilida orosta va oroyish so'zlari bor. Ammo **bezanmakmng** muqobil so'ziga kelganda ular indayolmay qoladilar. Zero **bezanmak yasanmog'ning**³ mubolag'asidir. Turkiyda u tushunchani shunday ifodalangani bor:

Bayt:

Erur bas chu husn-u malohat sanga,
Yasanmoq, bezanmak ne hojat sanga?!⁴

Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida turkiy tilning boy leksik va uslubiy imkoniyatlarini ko'rsatish maqsadida ko'plab fe'llarni tahlil qiladi. Mutaakkir bir ma'noga yaqin bo'lgan fe'llarning uslubiy va semantik farqlarini ochib beradi. Masalan, tomshimoq fe'li oddiy ichish emas, balki ichimlikdan zavqlanib, oz-ozdan sipqorib ichishni bildiradi. Xuddi shuningdek, bo'xsamoq iztirob va ruhiy ezilish holatini, ingramoq va singramoq esa yashirin, ohista yig'lash ma'nolarini ifodalaydi.

Navoiy siqtamoq fe'lini yig'lashning kuchaytirilgan shakli sifatida izohlaydi. O'kurmak esa baland ovoz bilan dod-faryod qilib yig'lash ma'nosini anglatadi. Inchkirmak fe'li esa nozik va ingichka ovoz bilan yig'lashni bildiradi. Ko'rinadiki, turkiy tilda yig'lash harakatining turli darajalarini ifodalovchi bir qancha fe'llar mavjud bo'lib, ular nutqning ta'sirchanligi va obrazlilikini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, qimsanmoq va qizg'anmoq fe'llari ham ma'no nozikliklari bilan ajralib turadi. Qimsanmoq biror narsani ortiq darajada istashni bildirsa, qizg'anmoq uni boshqalardan ayash va ravo ko'rmaslik ma'nosini anglatadi. Bezanmoq fe'li esa oddiy yasanmoq fe'lining kuchaytirilgan uslubiy shakli hisoblanadi. Demak, Alisher Navoiy fe'llarning uslubiy xususiyatlarini tahlil qilish orqali turkiy tilning ma'no nozikliklarini ifodalashdagi keng imkoniyatlarini namoyish etadi. Bu fe'llar sinonimik munosabatga ega bo'lsa-da, har biri o'ziga xos uslubiy bo'yoq va emotsional-ekspressiv ma'noga ega. Shu jihatdan ular badiiy nutqning ta'sirchanligini oshiruvchi muhim uslubiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Xulosa

O'zbek tilida fe'llar eng faol va sermahsul so'z turkumlaridan biri hisoblanadi. Ular harakat va holatni ifodalash bilan birga, nutqning uslubiy bo'yoqdorligini ta'minlashda ham muhim vazifa bajaradi. Turli nutq uslublarida fe'llarning qo'llanishi

³ Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida

⁴ Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida

o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular matnning mazmuni va ta'sirchanligini belgilaydi. Badiiy uslubda obrazlilik va emotsionallikni kuchaytiruvchi, ilmiy uslubda esa aniqlik va mantiqiylikni ta'minlovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Demak, fe'llarning uslubiy imkoniyatlarini o'rganish o'zbek tilshunosligida muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O'zbek tili. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
2. Abdurahmonov G'. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.
3. Hojiyev A. O'zbek tili grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2012.
4. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
5. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2018.
6. Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2013.
7. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.